

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

VOLUME I, ISSUE 10



JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



IMFAKTOR

OCTOBER | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-10>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ORTIQOV Sirojiddin Sa'dullayevich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10041569>

О'SPIRINLARDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Maqolada o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning metodologik tahlili o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Shuning uchun shaxsning huquqiy ong va huquqiy savodxonligini aniqlashda tadqiqot predmeti va obyekt bosh mezon hisoblansa-da, ammo muammoni o'rganishni optimallashtirish uchun asosiy metod va metodikalarni tadbiiq etish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, mas'ul bo'lgan ota-onalar, o'qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar.

РАЗВИТИЕ ПРАВОВОЙ ОСВЕДОМЛЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В статье изучен методологический анализ развития правосознания подростков. Согласно анализу научных источников, возникла необходимость исследования вопроса о правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития человека. Поэтому, хотя предмет и объект исследования считаются основным критерием определения правового сознания и правовой грамотности человека, целесообразно принять меры по применению основных методов и методик для оптимизации исследования проблемы.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, правовая грамотность, воспитание молодежи, ответственные родители, педагоги-воспитатели, общественность, зрелая молодежь, приоритетные задачи, проблемы, возникающие в образовании.

DEVELOP LEGAL AWARENESS IN TEENAGERS METHODOLOGICAL ANALYSIS

ANNOTATION

Methodological analysis of the development of legal consciousness in adolescents is studied in the article. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. Therefore, although the subject and object of research is considered the main criterion in determining the legal consciousness and legal literacy of a person, it is appropriate to take measures to apply the main methods and methodologies to optimize the study of the problem.

Key words: legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, responsible parents, teachers-educators, public, mature youth, priority tasks, problems arising in education.

Jahon ijtimoiy taraqqiyotidagi tub o'zgarishlar jarayoni bugungi kunda aholi, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik masalalarini tahlil qilganimizda huquqiy savodxonlik masalasiga doir yondashuvlar o'ziga xosligi bilan ajralib turishini ko'rsatdi. Shu sababli ham biz o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasida yangi tadqiqot dasturini shakllantirish muhim deb hisobladik. Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra tadqiq etishga zarurat tug'iladi.

Bugungi kun taraqqiyoti insonlardan o'zining huquqiy savodxonligini taqazo etadigan davr sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli shaxs taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq huquqiy savodxonlikni ta'minlash chora-tadbirlari, ularning psixologik jihatlari va komponentlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotimizda o'spirinlar huquqiy savodxonligini psixologik xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida tashkil etilayotgan izlanish uchun alohida dasturga zarurat tug'iladi. Mazkur masalani yechimini topish yuzasidan olib borilgan izlanishlarga ko'ra yechimini topish imkoniyatini beradigan munosabat tizimi kerak bo'ldi. Bu jarayonda ikki xil munosabat kuzatiladi. Birinchi holat ilk o'spirinlarning huquqiy savodxonligini psixodiagnostika va ikkinchisi esa huquqiy savodxonlikning rivojlantirish tizimini shakllantirish ehtiyojidir.

Bu esa dasturning shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi munosabat tizimini shakllantirishga imkon beradi. Buning uchun huquqiy savodxonlikni o'rganishga uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish asosiy elementlarni aniqlashga imkon beradi, ularning umumiy bahosi insonning huquqiy savodxonligi darajasini ko'rsatadi.

Huquqiy savodxonlik darajasini aniqlash uchun turli ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Empirik tadqiqotlardan odatda foydalanish: fuqarolarning huquqiy jihatdan o'z-o'zini baholashi; huquqning turli sohalaridan xabardorlik darajasini aniqlash; ma'ulum manfatli mavzular aholini qiziqtirmas ekan; qonunning muayyan tarmoqlari bo'yicha aholining huquqiy bilimga bo'lgan ehtiyojlari. Mazkur masala, xalqaro tadqiqotlar tajribasini o'rganish hisobida ta'minlanadi.

AQShning Kaliforniya universiteti huquq va jamiyatni o'rganish markazi [4], Kanada yuristlar assosiasiyasi [1], MARG (Multiple Action Research Group)— huquqiy savodxonlik darajasini oshirish ustidan ishlovchi hind notijorat markazi [2], Skandinaviya yo'nalishi, Italiya huquqiy sosiologiya Markazi va huquqiy savodxonlik tadqiqotlari [3], bo'yicha Rossiya tajribalari tadqiqot dasturini tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Agar Kaliforniya universiteti huquq va jamiyatni o'rganish markazi faoliyati bo'yicha AQShdagi huquqiy savodxonlik tadqiqotlarida huquqiy masalalar bo'yicha kompetentlik darajasi, to'liq va faol hayot kechirishi uchun huquqiy masalalarni qonunga muvofiq sifatida qaraladi. Xulq-atvor savodxonligi sud ishlarini yuritish bilan bog'liq bir qator funksional ko'nikmalar sifatida tavsiflanadi, bu esa barcha darajalarda adolat, hisobdorlik va samarali vositalarni talab qilishga imkon beradi.

Yevropa tadqiqotlari esa "Skandinaviya yo'nalishi" deb nomlanadi, unda fuqarolarning huquqiy savodxonligi va huquqiy munosabatlarni o'rganish mavjud qonunchilikka o'zgarish va o'zgartirishlar kiritish uchun amalga oshiriladi.

Kopengagen universiteti (Daniya) tomonidan mehnat qonunchiligi sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ijtimoiy sohadagi ayrim huquqiy qoidalarni o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Lund universiteti mutaxassislari (Shvesiya) "o'zaro tushunish muvozanat va roziligi qabul" ijtimoiy siyosat sohasida o'rganish Qonunchilik amaliyoti ayrim jihatlarini tekshiradi. Tibbiy sug'urta fondlarining tez o'sib borishi sabablarini o'rganib chiqib, Shvesiya hukumati ijtimoiy sug'urta ma'murlari faoliyatini tartibga soluvchi batafsil qonunlarni qabul qildi.

Bundan tashqari, Skandinaviya mamlakatlari uchun xarakterli tadqiqot mavzusi aholining huquqiy hamkorlikning turli jihatlariga munosabati hisoblanadi.

Huquqiy savodxonlik bo'yicha Rossiya amaliyotidan tadqiqotimiz uchun alohida o'rin oladigan jihatlar mavjud. Bugungi kunda Rossiyada Moliyaviy tadqiqotlar Milliy agentligi tahliliy markazi va AMULEKS Milliy huquqiy xizmat tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning o'ziga xos o'rnini bor. Mazkur markazlar faoliyatini o'rganish asosida tadqiqotimiz uchun o'ziga xos yo'nalishni tanlash imkoniyatini topishga erishdik. Mazkur tashkilotlarning o'zaro hamjihatligi asosida ishlab chiqilgan loyiha doirasidagi tadqiqotlar ham Kaliforniya universiteti huquq va jamiyatni o'rganish markazi, Skandinaviya yo'nalishi, Italiya huquqiy sosiologiya Markazi tajribalariga tayanganini anglash mumkin.

Respublikamizda xalqaro tajribalarga tayangan holda aholining huquqiy savodxonligini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlarning ham o'ziga xos o'rnini mavjudligini unutmazlik lozim bo'ladi. Bu boradagi tadbirlar ma'lum ma'noda huquqiy savodxonlik jahondagi barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb muammo ekanligini mavjud tajribalardan payqash qiyin emas.

Milliy darajada huquqiy savodxonlikni o'rganish aholi ortasida deyarli amalga oshirilmaydi, natijalar individual tadqiqotlarni aniqlashga qaratilgan huquqiy institutlarga munosabat, huquqiy tizim, aholining erkinliklarini himoyalash ilmiy makonda taqdim etiladi. Shu sababli ham Rossiyada huquqiy savodxonlikni ta'minlash bo'yicha alohida ijtimoiy va professional guruhlar faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda aholining huquqiy savodxonligini oshirishda kitob mutolasining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilayotganligi sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi esa ilm va ijod ahli, umuman jamiyat hayotiga befarq bo'lmagan har bir insonni ruxlantirdi. Ma'naviy yuksalish bo'yicha yana bir muhim qadam bo'ldi.

Mazkur farmoyishda ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilindi. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olindi [5].

Hozirgi sanab o'tilgan xalqaro va mahalliy tajribalar o'spirinlar huquqiy savodxonligi yuzasidan olib borilayotgan psixologik tadqiqotimiz uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

O'spirinlar huquqiy savodxonligini tadqiq etish dasturini mazmuni ikki xil yo'nalishdagi izlanishlar olib borishga undaydi. Tadqiqot dasturining birinchi qismi o'spirinlarning huquqiy savodxonlik holatini baholashga xizmat qiluvchi diagnostikasini tartiblashdir. Ikkinchi yo'nalishi esa o'spirinlar huquqiy savodxonligini o'stirish yuzasidan dasturiy ta'minotni shakllantirish masalasidan iborat.

Tadqiqotning diagnostika tizimini shakllantirishda psixologiya sohasida ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi jihatlarni inobatga olishni lozim topdik:

- huquqiy xabardorlik;
- huquqiy faollik;
- huquqiy qadriyatlarni bilish, e'tirof etish;

Yuqoridagi yo'nalishlar esa o'spirinlarning huquqiy savodxonligini aniqlash uchun zarur bo'lgan diagnostikani amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'spirinlarning huquqiy savodxonligini muhim sharti sifatida uning indeksi va uning komponentlarini aniqlash lozim. Huquqiy savodxonlik indeksi barcha xilma-xillikni hisobga olgan holda aholining huquqlarini himoya qilish haqidagi huquqiy savodxonligi darajasining sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va munosabat umumlashma ko'rsatkchidir. O'z navbatida huquqiy savodxonlik indeksi esa uchta ko'rsatkichga ega: huquqiy bilim, huquqiy ko'nikma va huquqiy ustanovkalar. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha o'spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasini baholash bo'yicha metodikalar xususida navbatdagi paragrafda batafsil to'xtaymiz.

Ushbu o'rinda huquqiy savodxonlik indeksining individual ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi quyidagi mulohazalarni keltirib o'tish muhimdir: *Huquqiy bilim (kognitiv jabha)*. Huquqiy bilim huquqiy ongning asosini tashkil etadi. Ushbu blok o'spirinlarning huquqiy xabardorligini subyektiv va obyektiv baholashni o'lchash uchun savollarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy ko'nikma (xulqiy jabha). O'spirinlarning huquqiy holatidagi xulq-atvorining ham real, ham deklarativ modelini ifodalaydi. O'spirinlarning o'zlarini huquqlari buzilgan holatdagi harakatlarini belgilaydi.

Huquqiy ustanovka (emosional-baholash). Huquqiy ustanovka huquq nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan narsalarga xulqiy tayyorlik (moyillik) sifatida qaraladi. Huquqiy ustanovka o'z ichiga olgan rasional (huquqiy normalar bilim, qonun, umumiy talablar), hissiy (huquqiy normalar va talablarga munosabat) va irodali (har qanday yo'l bilan harakat qilishga tayyorligi) komponentlarini tayyorligi va qiziqish emas, balki subyektning huquqiy tamoyillar va qadriyatlarga nisbatan muayyan tarzda qonuniy muhim vaziyatlarda harakat qilishdir [6].

Ushbu alohida ahamiyat kasb etadigan muammolarni anglab yetish uchun psixologlar faoliyatini tasdiqlashga e'tibor qaratamiz.

1. Shaxsning huquqiy ong va huquqiy savodxonligini aniqlashda tadqiqot predmeti va obyekt bosh mezon hisoblansa-da, ammo muammoni o'rganishni optimallashtirish uchun asosiy metod va metodikalarni tadbiq etish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. O'spirinlarda huquqiy savodxonlikni tadqiq etish metodlari va metodikalari tadqiqot obyektining huquqiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyatlari, biror bir fan yo'nalishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish layoqati, huquqiy tushunchalarni shakllantirish qonuniyatlarini egallashga tayyorligini baholaydi. Shu bois metodika natijalarini tahlil etishda ularning bunday xususiyatlarini hisobga olish ma'qul.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Edelman L., Krieger L., Eliason S., Albiston C. Judicial Deference to Institutionalized Employment Practices. (<https://www.law.berkeley.edu/academics/berkeley-empirical-legal-studies-bels/current-bels-research/>).
2. Zariski A. What is legal literacy? Examining the concept and objectives of legal literacy. (www.athabasca.ca/syllabi/lgst/docs/LGST249_sample.pdf) .
3. Multiple Action Research Group— Justice through research empowerment. (<http://ngo-marg.org/what-wedo/legal-awareness/>).
4. <http://eng.beccaria.unimi.it/escm/home/research/funded-research-projects>.
5. Аҳолининг ҳуқуқий билими ва саводхонлигини оширишда китоб мутоласининг аҳамияти//<https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/70893/?PIC=Y>.
6. Шамила. А.С.Место правовой установки личности в структуре правосознания//Мир науки и образования. 2018. № 3(15) file:///D:/mesto-pravovoy-ustanovki-lichnosti-v-strukture-pravosoznaniya.pdf.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz